

Date: 27th April-2026

ABDURAUUF FITRATNING AXLOQIY, TARBIYAVIY VA SIYOSIY
QARASHLARI.

Jumayeva Feruza Faxriddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi, p.f.f.d.(PhD)

jumayevafera@gmail.com, 99-702-67-09

Imomova Volda Ikrom qizi

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va

huquq ta‘limi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atoqli ma‘rifatparvar jadid Abdurauf Fitratningning axloqiy tarbiyaga oid qarashlari, oilada farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari tahlil etilgan. Hamda jadidchilik harakati davomida olib borilgan siyosiy faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jadid, jadidchilik, ziyoli qatlam, taraqqiyparvar, yosh buxoroliklar, hurriyat, Chig‘atoy gurungi.

Jadid ma‘rifatparvarlarining asarlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida axloqiy jihatdan kuchli qilib tarbiyalashda tarbiya masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Yaqin haftalarda jadidlar nomi har yerda yangradi. Ularga davlat siyosati darajasida e‘tibor berilib, yirik xalqaro konferensiya o‘tkazildi, katta siyosatchilar tilidan jadidlar nomiga maqtovlar aytili. Bu degani, jadidlarning faoliyatini o‘rganishga, ularning O‘zbekiston tarixiga qo‘shgan hissasiga baho berishga imkoniyatlar ochildi degani. Bugun Fitratning faoliyatiga to‘xtalamiz, uning tarjimaiy holiga va qarashlariga oydinlik kiritamiz. Jadidchilik ma‘rifatparvarlik harakati XIX asrda vujudga kelgan ommaviy ma‘rafiy harakat hisoblanadi. Jadid so‘zi arabcha “yangi” degan ma‘noni anglatadi. Jadidchilik harakatining bosh g‘oyasi xalqni ma‘rifatli qilish orqali mustamlaka zulmidan ozod qilishga qaratilgan ma‘rifatparvarlik harakatidir. Bu harakatning yorqin namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Isoqxon Ibrat, Sadriddiy Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqa bir qator ziyolilar hisoblanadi.

Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz kerakki, nimaga aynan “jadid” atamasi bu harakatning nomiga aylandi? Buning o‘rniga ularni “ma‘rifatparvarlar”, “taraqqiyparvarlar” yoki shunga o‘xshash boshqa nom berilsa bo‘lardi-ku. Bu savolga ularning “usuli jadid” nomli ya‘ni “yangi usul” maktablarini ochganliklari keyinchalik bu nom umumiy harakat nomiga aylanib ketganligini aytishimiz mumkin. Yoki ma‘rifatparvarlar jamiyatga “yangi qon”, “yangi ruh” olib kelishhga harakat qilishdi deb aytishimiz ham mumkin. To‘g‘ri yuqoridagi fikrlarda jon bor lekin shuni ham alohida ta‘kidlashimiz kerakki “Jadid” atamasining tanlanishiga yana bir asosiy sabab quyidagicha. U davrda barcha ham rus tilini bilmagan, gazetalar esa asosan rus tilida bosilgan va yangiliklarni rus tilini bilganlar qolganlarga o‘qib berishgan. Shu orqali yangiliklarni o‘qib bergan kishilarni aholi “Jadid”



Date: 27th April-2026

deb atay boshlaganlar. Shuning uchun bu ma'rifiy-siyosiy harakatni bugungi kunda Jadidchilik harakati deb ataymiz.

Buxoro jadidlarning yorqin vakili Abdurauf Fitrat xalqni ma'rifatli qilishda ta'lim-tarbiya masalari juda muhim deb hisoblagan. Fitrat o'z asarlarida Buxorodagi barcha maktablarni keltirib o'tadi, ammo ta'lim-tarbiya berish axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyati qolmaganini aytib o'tgan. Fitrat maktabni tarbiya o'chog'i deb hisoblagan, maktabni jamiyat hayotini rivojini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri ekanligini ta'kidlagan.

Maktab bolalarga tarbiya berib, jamiyatdagi buzuvchiliklar, o'g'irlik, razolatni yo'qotishi lozim deb biladi. Fitrat darsliklarida ko'plab hikoyalar keltiradi, bu hikoyalarda axloqiy tarbiya berishga va turli axloqiy xislatlarni singdirishga harakat qiladi. Fitrat inson shaxsini tarbiyalash uchun kurashgan mohir pedagogdir. U millatparvarlik va vatanparvarlik haqidagi qadriyatlarga tayanib, shunday ta'limot yaratdiki, bu ta'limot bugungi kunimizda vatanparvarlik mafkurasini yaratish va yoshlarni vatanni, millatni sevishga o'rgatishda muhim qo'llanma bo'la oladi. Fitrat vatan, vatanparvarlik va insonparvarlikni eng yuksak axloqiy xislat deb bilib, kishilarni uni asrashga, unga sidqidildan xizmat qilishga chaqiradi. Fitrat ijodiyotidagi eng muhim masalalardan biri uning islom dini g'oyalarini har taraflama chuqur o'rganib, tahlil etib, ulardan komil insonni imon- e'tiqod va insofli qilib tarbiyalashda foydalanishni targ'ib qilganligidir. Fitrat barkamol inson tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o'rni juda katta deb biladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi insonni axloqiy barkamol, barchaga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni asosiy axloqiy sifatlari deb hisoblaydi. Fitrat oila tarbiyasi va jamiyatda ayollarning o'rni, masalalariga ham alohida to'xtaladi. Bola tarbiyasida onaning o'rni juda kattaligini ko'rsatadi. Shu bilan birga tarbiyada oila, maktab va davlat hamkorligining zarurligini asoslaydi. Fitratning "Rahbari najot" asari to'la ravishda ta'lim va tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Ushbu asarning "Bola tarbiyasi masalalari" bobida "Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdur",- deya ta'kidlaydi. Bundan tashqari, u bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerak ekanligini, chunki davlatning kelajagi ana shunday yoshlar qo'lida bo'lishini aytib o'tadi.

Abdurauf Fitratning "Oila" asarida turkistondagi maktablar haqida shunday qayg'urib yozadi: "...maktablarimiz ahvolini qalam kuchi bilan tasvirlab beraman. Jigarbandingizni yetti yil tarbiyalab, qo'lidam ushlab maktabga olib borasiz. Maktab degan qanday joy? Bir qorong'i, havosi og'ir bo'lgan joy. Ovro'paliklar va ruslarning otxonalari bunday binolardan pokizaroq va havosi tozaroqdir. Tomi yo'q, devorlari faqat shuvoqlangan. O'tirgan o'ttiztacha bolaning orasida kal ham, ko'r ham, majruh-u sil ham bor. Jigarporangizni shu loyiq bo'lmagan joyga olib kirib muallimga topshirasiz. Shunday qilib dilbandingiz shu xonada johil bir muallim qo'lida ertadan kechgacha qolib alifbe, abjad va haftiyakni navbat bilan o'qiydi..."[1]. Ilmiy-badiiy adabiyotlarda gohida Fitrat haqida noto'g'ri ma'lumotlar ham uchraydi. Fitrat ateist sifatida ta'riflab, uning "Xudosizlar jamiyati"ga a'zo bo'lganligi va "Xudosizlar jurnali"ga maqolalar yozib



Date: 27th April-2026

turganligi haqida fikrlar keltirilgan. To'g'ri jamiyatga a'zo bo'lgandir, maqola ham yozgan bo'lsa bordir, lekin bu bilan Fitratni haqiqiy ateist deyishga asos bo'ladimi? "Sobiq ittifoq davrida yashab qolish uchun, faoliyatini davom ettirish uchun ham Fitrat ateistlarning gazetasiga maqolalar yozishga majbur bo'lgan" – deydi jadidshunos Zaynibiddin Abdurashidov[2]

Ya'ni Fitratning o'sha gazetaga bosilgan "Oq mozor" va "Zahroning iymoni" hikoyalari misol qilib keltiradi. Aslida bu hikoyalarni o'qib chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, zarracha ham ateistik qarash mavjud emasligini bilib olamiz. Shuningdek Fitrat deyarli har bir asarida Qur'oni Karimda va Hadisi shariflardan misollar keltirib o'tadi. Xususan "Rahbari Najot" asarining ilk so'zlari ham Bismillohdan boshlanganini yoki "Oila" asarida har bir fikrini Qur'on va hadislar bilan asoslab ketganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa Abdurauf Fitratni haqiqiy musulmon ekanligidan dalolat beradi.[3]

1917-yildan boshlab Fitrat maorif ishlaridan biroz chekinib, siyosiy faoliyat bilan shug'ullana boshladi. Buxoro jadidlarining tashabbusi bilan tuzilgan "Yosh buxoroliklar" partiyasi sarkotibliqi vazifasini bajardi, Samarqandda nashr qilingan "Hurriyat" gazetasida avval faol muallif sifatida qatnashgan bo'lsa, qisqa vaqt o'tishi bilan uning bosh muharriri sifatida faoliyat olib bordi. Fitrat bu davrda Rossiyadagi Muvaqqat hukumat bilan o'zaro tenglik asosida aloqalarni yo'lga qo'yish borasida juda ko'plab maqolalari bilan siyosiy faoliyatini davom ettirdi. Ammo Fitrat orzu qilgan tenglik, hurriyat orzusi bolsheviklar tomonidan chil parchin qilindi. Shu sabab "bolshevik balosi" bosh ko'targan 1917-yilning oktabrida sodir bo'lgan to'ntarishni "yurt qayg'usi" sifatida qabul qildi.

1918-yili Toshkentga kelgan Fitrat o'z atrofiga yoshlarni yig'ib "Chig'atoy gurungi"ni tashkil qildi. Bu jamiyat 3 yil faoliyat olib borgan bo'lishiga qaramay, nafaqat o'zbek tili va adabiyoti, balki umuman yangi o'zbek madaniyatining shakllanishi va taraqqiyot tarixni butkul yangi, zamonaviy ilm asosida o'rganishni boshlab berdi. "Chig'atoy gurungi" yangi O'zbekiston tarixidagi mahalliy ziyolilar tarafidan tuzilgan birinchi ilmiy tadqiqot jamiyati sifatida tarixga kirdi. Ayni shu jamiyat hozirgi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining ham tamal toshini qo'ydi. Gurung a'zolari tomonidan qator ilmiy risolalar, ayniqsa, til, imlo masalasiga oid nashrlar e'lon qilindi.

1920-1923-yillar davomida yangi tuzilgan Buxoro hukumati tarkibida turli yuqori lavozimlarda ishlagan Fitrat turli siyosiy ayblovlar bilan ishdan bo'shatildi va Moskvadagi "Jonli sharq tillari" institutiga yuborildi. Shu davrdan boshlab Fitrat umrining oxiriga qadar faqat ilmiy izlanishlar bilan mashg'ul bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri sifatida o'zbek xalqining ma'rifiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. U ta'lim va tarbiyani millat kelajagini belgilovchi asosiy omil deb bilgan va bu borada o'zining ilmiy va adabiy asarlari orqali muhim g'oyalarni ilgari surgan. Fitratning asarlari axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, islomiy qadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti masalalarini chuqur tahlil qilgan holda yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan.



Date: 27th April-2026

Garchi sovet tuzumi tomonidan Fitrat va uning maslakdoshlariga tazyiq o'tkazilgan bo'lsa-da, uning boy merosi bugungi kunda milliy tafakkur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim manba bo'lib qolmoqda. Fitratning asarlari va g'oyalari yosh avlodga millatni sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, ilm va ma'rifat yo'lida intilish kabi ezgu fazilatlarni singdirishda o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurauf Fitrat "Tanlangan asarlar" "Oila yoki oila boshqarish tartiblari". Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2009 yil.
2. Maorif ishlari (1-maorif qurultoyida Fitrat o'rtoqning ma'ruzasi)// "Uchqun" jurnali, 1923 yil 1 aprel. B-2
3. Jadidlar. Abdurauf Fitrat. [Main]: risola./ D.Quronov.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 80 b.
4. Jo'rayev. N O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachligi davrida). 1-kitob. – T.: Sharq 2011 yil . 409 bet.
5. Xo'jayev.F "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar", Tosh; "Fan"1997, 63-bet

